
TEST VARIANTI RAQAMI: **1938490**

BIOLOGIYA

Ushbu test varianti 30 ta test topshirig‘idan iborat. Uni bajarishga 1 soat vaqt belgilash tavsiya etiladi. Natijani bilish uchun javoblaringizni javoblar varaqasiga belgilab, rasmini **@dtmxizmatbot** orqali jo‘nating. Sizga omad tilaymiz!

TEST VARIANTI RAQAMINI JAVOBLAR VARAQASIGA TO‘G‘RI KO‘CHIRING!



1. Nuqtalar o‘rniga mos javobni tanlang.
Ohu ... hayvon.

A) *oshqozoni ikki bo‘lmali*

B) *kavsh qaytaruvchi juft tuyoqli*

C) *kavsh qaytarmaydigan juft tuyoqli*

D) *toq tuyoqli*

2. Qizil korall polipining jinsiy (a) va jinssiz (b) ko‘payish ketma-ketligi to‘g‘ri berilgan javobni aniqlang.
1) zigota; 2) kurtaklarning paydo bo‘lishi;
3) lichinka; 4) ona organizmidan ajralishi;
5) jinsiy hujayralarning yetilishi;
6) paypaslagichlar, og‘iz teshigi paydo bo‘lishi;
7) yosh polip; 8) urug‘lanishning sodir bo‘lishi.

A) *a - 5, 8, 1; b - 2, 6, 7*

B) *a - 5, 8, 1, 7; b - 2, 6, 3, 7*

C) *a - 2, 5, 8, 1; b - 2, 7, 6*

D) *a - 3, 5, 8, 1, 7; b - 2, 6, 4, 7*

3. Quyidagilardan evolutsiyani isbotlashda fanlar dalillari to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni belgilang.
1) kitning dumg‘aza suyaklari rudiment organ;
2) bo‘g‘imoyoqlilarning ontogenezi zigotadan boshlanadi; 3) umurtqalilar ontogenezida blastula davri bo‘ladi; 4) kaltakesak embrionida jabra yoriqlari bo‘ladi; 5) silur davrida tuproq quruqlik o‘simliklari – psilofitlarning tarqalishiga imkon bergan; 6) shirinmiya ildizpoyasi va qovoqning jingalagi gomologik organ.

A) *1, 4 - solishtirma anatomiya; 2, 3 - embriologiya*

B) *2, 3 - paleontologiya; 1, 3 - solishtirma anatomiya*

C) *2, 4 - embriologiya; 1, 6 - solishtirma anatomiya*

D) *2, 4 - embriologiya; 5, 6 - paleontologiya*

4. Berilgan tuzilmalar mansub to‘qimalarni aniqlang.
1) xlorenxima; 2) periderma; 3) kollenxima;
4) traxeidlar.

A) *1 - asosiy; 2 - qoplovchi; 3 - mexanik; 4 - o‘tkazuvchi*

B) *1 - hosil qiluvchi; 2 - mexanik; 3 - qoplovchi; 4 - o‘tkazuvchi*

C) *1 - assimilatsion; 2 - qoplovchi; 3 - o‘tkazuvchi; 4 - mexanik*

D) *1 - qoplovchi; 2 - asosiy; 3 - o‘tkazuvchi; 4 - mexanik*

© Davlat test markazi, 2019

5. Shuvoq (a), shoʻrak (b), chayir ajriq (c) qaysi oila vakillari hisoblanadi?

A) *a - qoqioʻtdosh; b - shoʻradosh; c - bugʻdoydosh*

B) *a - qoqioʻtdosh; b - shoʻradosh; c - burchoqdosh*

C) *a - qovoqdosh; b - shoʻradosh; c - bugʻdoydosh*

D) *a - qoqioʻtdosh; b - karamdosh; c - bugʻdoydosh*

6. Gigrofit (a), kserofit (b) yuksak oʻsimliklarni aniqlang.
1) sarsazan; 2) yapon laminariyasi; 3) elodeya; 4) roʻvak; 5) baliqkoʻz; 6) qirqboʻgʻim; 7) agava; 8) yantoq; 9) qamish; 10) nitella; 11) qoʻgʻa

A) *a - 9, 11; b - 7, 5* B) *a - 4, 10; b - 7, 8*
C) *a - 2, 6; b - 1, 8* D) *a - 3, 10; b - 1, 9*

7. Nostok hujayrasida sodir boʻladigan jarayonlarni aniqlang.
1) fermentlar yordamida DNK reduplikatsiyasi; 2) yadroda transkripsiyaning amalga oshishi; 3) silliq endoplazmatik toʻrda yogʻ sintezi; 4) genetik kod asosida oqsil biosintezining amalga oshishi; 5) fotosintez jarayonining kechishi; 6) sitoskelet elementlari yordamida hujayra ichki tuzilmalari harakati.

A) *1, 5* B) *3, 6* C) *4, 6* D) *3, 5*

8. Nuqtalar oʻrniga mos javobni tanlang.
Gʻoʻza avlodida 52 xromosomali turning paydo boʻlishi ... hisoblanadi.

A) *xromosoma mutatsiyasi*
B) *genom mutatsiyasi* C) *gen mutatsiyasi*
D) *nuqtali mutatsiya*

9. "Hayvonlarning paydo boʻlishi" (a), "Zoologiyaga kirish" (b), "Turlarning paydo boʻlishi" (c) asari mualliflari toʻgʻri juftlangan javobni toping.

A) *a - Aristotel; b - J.B.Lamark; c - Ch.Darvin*

B) *a - Ch.Darvin; b - I.P.Pavlov; c - J.B.Lamark*

C) *a - J.B.Lamark; b - N.Gryu; c - K.Linney*

D) *a - Ch.Darvin; b - N.Gryu; c - K.Linney*

10. Nazariy jihatdan DNK molekulasining birinchi zanjirida nukleotidlar ATG TGA GGT ACA CGT GGT GAT TCA ketma-ketlikda joylashgan boʻlsa, shu qoʻsh zanjirdagi har bir nukleotid yigʻindisini aniqlang.

A) *A - 11, T - 11, C - 13, G - 13*

B) *T - 6, A - 7, C - 4, G - 7*

C) *A - 7, T - 4, C - 6, G - 7*

D) *A - 13, C - 11, T - 13, G - 11*

11. Soʻrgʻichlilar sinfiga mansub jigar qurtining hayot siklida 3 va 5 raqamlarga muvofiq ravishda mos keladigan bosqichlar qaysi javobda toʻgʻri keltirilgan?
Urugʻlangan tuxum → tashqi muhitdagi tuxum → 3 → oraliq xoʻjayin tanasidagi lichinka → 5 → sista → asosiy xoʻjayin tanasidagi lichinka → voyaga yetgan jigar qurti

A) *3 - dumli lichinka; 5 - asosiy xoʻjayin tanasidagi lichinka*

B) *3 - finna; 5 - asosiy xoʻjayin tanasidagi lichinka*

C) *3 - kiprikli lichinka; 5 - finna*

D) *3 - kiprikli lichinka; 5 - dumli lichinka*

12. Odamlarda sochning jingalakligi silliqligi ustidan, teri rangining qora boʻlishi oq boʻlishi ustidan chala dominantlik qiladi. Geterozigotalilarda sochi toʻlqinsimon, teri rangi oraliq boʻladi. Toʻlqinsimon sochli, teri rangi oraliq yigit toʻlqinsimon sochli terisi oq qizga uylandi. Nazariy jihatdan, ushbu nikohdan tugʻiladigan farzandlarning necha foizi jingalak sochli boʻlishi mumkin?

A) *0* B) *12,5* C) *25* D) *50*

13. Nuqtalar oʻrniga mos javobni tanlang.
Siklop soxta kurakburun singari ... .

A) *nerv sistemasi bosh va orqa miyadan iborat*

B) *skeleti suyakdan iborat*

C) *jabra orqali nafas oladi*

D) *qon aylanish sistemasi yopiq*

© Davlat test markazi, 2019

14. Buyrak kalavasimon kanalchalarida sodir bo‘ladigan jarayonlar to‘g‘ri berilgan javobni aniqlang.

A) *reabsorbsiya sodir bo‘ladi; ikkilamchi siydik hosil bo‘ladi*

B) *birlamchi siydik hosil bo‘ladi; reabsorbsiya sodir bo‘ladi; suyuqlik kapillarlarga o‘tadi*

C) *qonning suyuq qismi filtrlanadi; birlamchi siydik hosil bo‘ladi*

D) *reabsorbsiya sodir bo‘ladi; birlamchi siydik hosil bo‘ladi*

15. Energiya almashinuvi bosqichlari va ularda sodir bo‘ladigan jarayonlar to‘g‘ri juftlangan javobni aniqlang.
1) murakkab uglevodlarning parchalanishi;
2) glukozaning parchalanishi; 3) sut kislotaning CO_2 va H_2O gacha parchalanishi; 4) ATF sintezi; 5) spirt va CO_2 ning hosil bo‘lishi
a) tayyorgarlik bosqichi; b) ikkinchi bosqich;
c) uchinchi bosqich.

A) *a - 1, 4; b - 2; c - 4, 5*

B) *a - 2; b - 1, 4; c - 3, 4*


C) *a - 1; b - 2, 4; c - 3, 4*

D) *a - 1, 2; b - 4; c - 3, 5*

16. Odamda murtak varaqasining ektodermasidan rivojlanuvchi tuzulmalarni aniqlang.
1) uzunchoq miya; 2) ichak epiteliysi;
3) terining epidermis qavati; 4) o‘mrov osti muskuli; 5) kolbachasimon va tayoqchasimon retseptorlar; 6) o‘pka arteriyasi; 7) o‘ng va chap o‘pka; 8) jabra.

A) *6, 7* B) *1, 3* C) *2, 4* D) *5, 8*

17.



Somatik hujayra mitoz sikli tasvirlangan yuqoridagi rasmda quyidagi jarayonlar sodir bo‘ladigan bosqichlar qaysi raqamlar bilan ko‘rsatilgan?
a) sitoplazma ikkiga ajraladi (sitokinez);
b) DNK sintezida ishtirok etadigan fermentlarning faolligi ortib, hujayra jadal o‘sadi

A) *a - 5; b - 3* B) *a - 6; b - 1*
C) *a - 6; b - 3* D) *a - 4; b - 2*

18. Quyida berilganlardan faqat Sharq sauriga (a), faqat zuhrasochga (b) xos hamda ular uchun umumiy bo‘lgan (c) xususiyatlarni aniqlang.
1) arxegoniy urug‘kurtakda yetiladi; 2) tuxum hujayrasi arxegoniyda yetiladi;
3) spermatozoidlar anteridiyda hosil bo‘ladi;
4) mexanik to‘qimaga ega; 5) shamol yordamida changlanadi; 6) o‘tkazuvchi sistemaga ega; 7) urug‘langan tuxum hujayradan murtak rivojlanadi;
8) urug‘kurtakdan urug‘ hosil qiladi;
9) urug‘lanish suvda amalga oshadi.

A) *a - 5; b - 3, 4; c - 8* B) *a - 1; b - 3; c - 2, 6*
C) *a - 3; b - 9; c - 5, 7*
D) *a - 8; b - 7, 9; c - 4*

19. To‘g‘ri fikrlar berilgan javobni aniqlang.
1) DNK bo‘lagini rekombinant vektor konstruksiyalar vositasida ko‘paytirish genlarni klonlash deb ataladi; 2) transmissibl plazmid bakteriya bo‘linganida qiz hujayralar orasida tasodifan taqsimlanadi; 3) xromosomasining maxsus DNK izchilligini kesib, rekombinatsiya bo‘la oladigan tuzilmalar transmissibl plazmidlar hisoblanadi; 4) ligaza, restriktaza, transpozaza vektor sifatida foydalaniladigan irsiy molekulalardir.

A) *1, 2* B) *3, 4* C) *1, 3* D) *2, 3*

20. Avtotrof organizmlarni aniqlang.

A) *riniya, keta*
B) *nitrifikator bakteriya, yapon laminariyasi*
C) *kabarga, xlorella*
D) *suvyig‘ar, tripanosoma*

© Davlat test markazi, 2019

21. Naysimon suyaklar berilgan javobni aniqlang.
a) qovurg‘a; b) umurtqa; c) yelka; d) son
A) *b, c* B) *a, b* C) *a, d* D) *c, d*

22. Exinokokk (a), qoramol tasmasimon chuvalchangi (b), jigar qurti (c) ga xos bo‘lgan xususiyatlarni belgilang.
1) lichinkalik davrida ham ko‘payadi; 2) oziqni tana yuzasi orqali shimib oladi; 3) qoramollar uning oraliq xo‘jayini hisoblanadi; 4) oraliq xo‘jayinga ega emas; 5) hazm qilish organlari rivojlanmagan; 6) it va boshqa yirtqich hayvonlar uning asosiy xo‘jayini hisoblanadi; 7) urg‘ochisining jinsiy organi ikkita tuxumdondan iborat.

A) *a - 1, 5; b - 4; c - 3*
B) *a - 2, 7; b - 6; c - 3*
C) *a - 2, 6; b - 5; c - 1*
D) *a - 1, 4; b - 3; c - 7*

23. Nam sharoitda o‘sadigan o‘simliklarga mos keluvchi ma’lumotlar to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni aniqlang.
1) gigrofitlar deb ataladi; 2) gidrofitlar deb ataladi; 3) ularga elodeya, nilufar misol bo‘ladi; 4) ularga qo‘g‘a, qamish, ro‘vak o‘simliklari misol bo‘la oladi.
A) *2, 4* B) *1, 3* C) *1, 4* D) *2, 3*

24. Evolutsiya natijasida organik olamda ogohlantiruvchi rang (a), maskirovka (b) orqali moslashgan organizmlar to‘g‘ri juftlangan javobni aniqlang.
1) qovog‘ari tana rangi ko‘zga yaqqol tashlanadi; 2) xonqizi qo‘ng‘izi tana rangi bilan ko‘zga yaqqol tashlanadi; 3) chupchik hasharoti rangi va shakli ingichka novdani eslatadi; 4) kallima kapalagi qanotlari shakli, naqsh va tomirlari bargga o‘xshash bo‘ladi; 5) gornostay yozda bir qishda boshqa rangda bo‘ladi.
A) *a - 4; b - 2* B) *a - 5; b - 1*
C) *a - 2; b - 3* D) *a - 3; b - 5*

25. Piyozdoshlarga xos xususiyatlarni aniqlang.

A) *gulqo‘rg‘oni oddiy, o‘q ildizi rivojlangan bo‘ladi*
B) *unayotgan o‘simlikda urug‘pallabargi yer ostida qoladi, gulqo‘rg‘oni murakkab bo‘ladi*
C) *asosiy ildiz tezda nobud bo‘ladi, unayotgan o‘simlik tuproqdan ikkita urug‘pallabarg bilan chiqadi*
D) *barg yaprog‘i parallel yoki yoysimon tomirlangan, gulqo‘rg‘oni oddiy bo‘ladi*

26. Nuqtalar o‘rniga mos javobni tanlang.
Sayg‘oqning muskul hujayrasida energiya almashinuvining tayyorgarlik bosqichida ... kuzatilmaydi.
1) glukozadan sut kislotasining hosil bo‘lishi; 2) uglevodlar, oqsillarning fermentlar ishtirokida parchalanishi; 3) glikogendan glukozaning hosil bo‘lishi; 4) bir molekula glukozaning parchalanishi va unda to‘plangan 2800 kJ energiyaning ajralishi.
A) *3, 4* B) *2, 3* C) *1, 2* D) *1, 4*

27. Tulkida ovqatga nisbatan shartsiz refleks hosil bo‘lishida reflektor yoyi bo‘ylab nerv impulsining o‘tish yo‘lini aniqlang.
1) so‘lak bez; 2) uzunchoq miya; 3) harakatlantiruvchi nerv; 4) tam bilish retseptorlari; 5) sezuvchi nerv; 6) solak ajralishi; 7) bosh miya katta yarimsharlari po‘stlog‘i.

A) $1 \to 4 \to 2 \to 7 \to 5 \to 6$
B) $1 \to 4 \to 5 \to 7 \to 3 \to 6$
C) $4 \to 5 \to 2 \to 3 \to 1 \to 6$
D) $4 \to 1 \to 2 \to 3 \to 5 \to 6$

28. Berilgan organizmlardan birinchi tartibli konsumentlar (birinchi darajali konsumentlar) to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni aniqlang.
1) sakkizoyoq; 2) so‘na; 3) suluv ninachi; 4) sariq ilon; 5) karam kapalagi qurti; 6) kaptar; 7) jayron; 8) jirafa; 9) qirg‘iy; 10) zubr; 11) boyo‘g‘li; 12) bo‘ka; 13) bug‘u; 14) qutb meduzasi; 15) qum bo‘g‘ma iloni; 16) qora kalxat; 17) mita.
A) *5, 6, 7, 8, 10* B) *1, 4, 9, 12, 15*
C) *2, 6, 7, 14, 17* D) *3, 9, 11, 13, 16*

© Davlat test markazi, 2019

29. Tovuqlarda toj shakli ikki juft noallel komplementar genlar ta'sirida irsiylanadi. Gomozigota gulsimon tojli (A) va gomozigota no'xatsimon tojli (B) tovuq va xo'rozlar o'zaro chatishtirilsa yong'oqsimon tojli tovuqlar hosil bo'ladi. Retsessiv genlar oddiy tojni yuzaga chiqaradi. *Ab* tipdagi gametalari hayotchan bo'lmagan digeterozigota tovuq va xo'rozlar o'zaro chatishtirilib 180ta jo'ja olindi. Yuqoridagi ma'lumotlardan foydalanib, quyidagilarni aniqlang:
a) avlodda olingan jo'jalarning fenotipik guruhlari nisbati;
b) avlodda olingan $AABB$ va $AaBb$ genotipli jo'jalarning soni

A) *a - 3ta no'xatsimon; 3ta gulsimon, 9ta yong'oqsimon; b - 72 ta*

B) *a - 3ta no'xatsimon, 5ta yong'oqsimon, 1ta oddiy tojli; b - 60ta*

C) *a - 3ta gulsimon; 2ta no'xatsimon, 5ta yong'oqsimon; b - 60ta*

D) *a - 2ta gulsimon; 5ta yong'oqsimon, 1ta oddiy, 3 no'xatsimon; b - 80ta*

30. Sovuq qonli (a) va issiq qonli (b) hayvonlarni aniqlang.

A) *a - tasqara; b - ko'rshapalak*

B) *a - qizil chuvalchang; b - zog'cha*

C) *a - gavial; b - tilyapiya*

D) *a - baqachanoq; b - krevetka*

Test varianti "Test topshiriqlari to'plami 2019" asosida shakllantirilgan:

1 – 7-bet 8	7 – 14-bet 6	13 – 74-bet 33	19 – 50-bet 14	25 – 64-bet 25
2 – 30-bet 9	8 – 38-bet 14	14 – 89-bet 22	20 – 13-bet 14	26 – 18-bet 4
3 – 108-bet 4	9 – 102-bet 27	15 – 25-bet 34	21 – 84-bet 19	27 – 96-bet 17
4 – 28-bet 26	10 – 11-bet 37	16 – 34-bet 10	22 – 80-bet 3	28 – 126-bet 15
5 – 55-bet 35	11 – 80-bet 74	17 – 21-bet 11	23 – 119-bet 36	29 – 46-bet 67
6 – 59-bet 22	12 – 40-bet 30	18 – 68-bet 3	24 – 106-bet 16	30 – 117-bet 21

© Davlat test markazi, 2019